

DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA TA'MINOT JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDA ABC TAHLILINING O'RNI

*Chinberdiyeva Lazokatxon Raxmatjonovna, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti (tel. +998943849559)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada donni qayta ishlash korxonalarining ta'minot jarayonida ABC tahlilining qo'llanilishi hamda uning resurslar ustuvorligini aniqlashdagi amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'minot jarayoni, ABC tahlili, resurslar tarkibi, zaxiralar qiymati, resurslar ustuvorligi.

Xo'jalik faoliyati davomida korxonalar tomonidan turli jarayonlar amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar natijasida mablag'larning harakati yuzaga kelib, ularning holati va qiymatiga ta'sir ko'rsatiladi. Har bir jarayon mablag'lar harakatiga bevosita ta'sir etadi. Bu jarayonlar umumiy holda asosiy xo'jalik jarayonlari deb atalib, ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Asosiy xo'jalik jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur bog'liqlikni to'g'ri tashkil etish korxonaning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ta'minot jarayonida mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur moddiy resurslarni sotib olish muhim ahamiyatga ega. Moddiy resurslarni harid qilinishi, ishlab chiqarish davomida sarflangan resurslarning o'rnini to'ldiradi, ishlab chiqarishning davomiyligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi 284-sonli “2022-yil hosildan bug'doyni harid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga asosan, “Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 2022-yil hosildan sug'oriladigan maydonlarning har gektaridan o'rtacha 2,5 tonnadan jami 2550 ming tonna bug'doyning:

1 783,5 ming tonnasini tovar bug'doy davlat resursi sifatida hamda 266,5 ming tonnasini urug'lik uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan harid qilish;

500 ming tonnasini fermer xo'jaliklari hamda boshqa g'alla yetishtiruvchilar tomonidan keyinchalik birja savdolarida sotish uchun Jamg'armaning tijorat vakilida vaqtinchalik saqlashga qabul qilish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

“O'zdonmahsulot” AK tizimidagi korxonalar bug'doyni Jamg'arma nomidan bug'doy yetishtiruvchilardan sotib olish, saqlash, shuningdek, haridorlarga yuklash tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat vakili hisoblanadi”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib donni qayta ishlash korxonalari hozirgi kunda asosiy xom ashyo hisoblangan bug'doyni birja savdolari asosida sotib olishni amalga oshirmoqda. Bu holat donni qayta ishlash korxonalari faoliyatiga bozor mexanizmlarini yanada keng kirib kelishiga sabab bo'ldi. Donni qayta ishlash korxonalari asosiy xom ashyo bug'doy bilan ta'minlashni 2022-yilga qadar Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan harid qilishni amalga oshirgan bo'lsa, endilikda

birja savdolarida ishtirok etib sotib olmoqdalar. Buning ijobiy jihatlari donni qayta ishlash korxonalariga erkinlikni berilishi, o'zini o'zi boshqarishga harakat qilishi, shuningdek, bozordagi raqobatda yutib chiqish uchun mahsulot sifatini yaxshilashga intilishi, mahsulot assortimentini o'zgartirishga harakat qilishi kabilarda ko'rinadi.

Moddiy resurslar ta'minot darajasiga quyidagi tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Davlat miqyosida bug'doyni harid qilish tizimiga kiritilgan o'zgartirishlar.
2. Respublikamizda korxonalarining mulkchilik shaklini o'zgartirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.
3. Korxonalarda ta'minot rejasining puxta ishlab chiqilmaganligi.
4. Ta'minot rejasining bajarilishi bo'yicha nazoratni amalga oshirilmaganligi.
5. Ta'minot byudjetini ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Bunday muammolarning oldini olish uchun ta'minot jarayonining boshqaruv tahlilini amalga oshirish zarur.

R.D. Dusmuratov ta'minot jarayonining mohiyatini shunday izohlaydi: "Ta'minot jarayonida korxonalar mol yetkazib beruvchilardan asosiy vositalar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'ilar va mahsulot ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan boshqa buyumlarni sotib oladi"¹⁴².

A.Abdullaev boshchiligidagi olimlar: "Har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektlar belgilangan reja ko'rsatkichlarini bajarishda tegishli xom ashyo va ehtiyot qismlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu jarayonning to'g'ri tashkil qilinishi boshqa jarayonlarni to'g'ri tashkil qilish uchun asos yaratadi"¹⁴³, - deb fikr bildirganlar.


B.A.Xasanov, A.A.Xashimovlar esa quyidagi fikrni bildirganlar: "Korxonalarda ta'minot-tayyorlov faoliyati takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi".

Demak, ta'minot jarayonini to'g'ri tashkil etish korxonaning moddiy-texnik bazasini shakllantirish, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ta'minot strategiyasining puxta ishlab chiqilishi korxonani bozor sharoitlaridagi noaniqlik va xavflardan himoyalash, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq va samarali ishlatilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy resurslar ta'minot jarayoni tahlilida moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining barqarorligini ta'minlash zarurdir. Donni qayta ishlash korxonalarida moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining holatini o'rganish maqsadida mamlakatimizning turli hududlarida joylashgan donni qayta ishlash korxonalarining ma'lumotlarini tahlil qildik.

¹⁴² Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. 261 bet.

¹⁴³ Abdullaev A, Abduvasikov A.A, Yusupova M.B, Kamolov X.X, Xojiboev M.Sh, Raximova U, Xamidullina Z.Ch. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2019. 23 bet.



1-rasm. Donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari dinamikasi tahlili (ming so‘m)

Tadqiqot olib borilgan donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari 2023-yilda 2019-yilga nisbatan oshgan bo‘lsada, 2022-yilga nisbatan kamayganligini ko‘rish mumkin. Barcha korxonalarning faoliyati bir xil natijani ko‘rsatmoqda, ya’ni, moddiy resurslar ta’minot darajasi pasayganligi kuzatilmoqda.

Moddiy ishlab chiqarish zaxiralar holatini yaxshilashning jahon amaliyotida turli modellardan foydalaniladi:

- EOQ (Economic Order Quantity) - iqtisodiy buyurtma hajmi;
- ABC (iqtisodiy muhim, o‘rta ahamiyatli, past ahamiyatli) tahlili;
- XYZ (barqaror talab, o‘rtacha o‘zgaruvchan talab, noto‘g‘ri talab) tahlili;
- dinamik dasturlash (Dynamic Programming);
- stoxastik modellar va boshqalar.

A “Always”, B “Better”, C “Control” tahlili moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini to‘g‘ri boshqarish yuzasidan qaror qabul qilishga yordam beradi.

ABC tahlilini amalga oshirish uchun korxonaning moddiy ishlab chiqarish zaxiralarning har bir turi bo‘yicha o‘tgan davrlarda foydalanilgan miqdori va bir birligining o‘rtacha bahosi aniqlanib ular yordamida umumiy qiymati topiladi. Har bir turdagi moddiy ishlab chiqarish zaxiralarning jami ishlab chiqarish zaxiralar tarkibidagi ulushi aniqlanadi. Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari qiymati va miqdoriga qarab yuqori qiymat va yuqori hajm asosida joylashtiriladi va foizlar asosida guruhlariga ajratiladi.

1-jadval

A “Always”, B “Better”, C “Control” tahlili asosida moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini optimallashtirish

Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari	Umumiy qiymatdagi ulushi %	Qiymati bo‘yicha ulushi %	Ishlab chiqarishdagi ahamiyati	E’tibor qaratilishi zarur jihatlar	Boshqaruv tahlilida qo‘llaniladigan usullar
A	70-80	20	iqtisodiy muhim	har bir turiga bo‘lgan talabni aniq baholash;	EOQ (Economic Order Quantity - iqtisodiy buyurtma miqdori);

				sotib olish narxi, transport xarajatlari va saqlash xarajatlarini hisobga olish	JIT (Just-In-Time – talab bo‘yicha); RIM (Reusable Inventory Model – qayta ishlanadigan zaxiralar)
B	15-20	30	o‘rta ahamiyatli	miqdor va narx o‘rtasidagi muvozanatni saqlash	JIT (Just-In-Time – talab bo‘yicha); RIM (Reusable Inventory Model – qayta ishlanadigan zaxiralar)
C	5	50	past ahamiyatli	narxi va yetkazib kelish imkoniyatini hisobga olish	jadvallar, matematik hisob-kitoblar
Jami	100	100			

Umumiy qiymatning 70-80 foizini tashkil etuvchi moddiy resurslarning 15-20 foizi “A” guruhga, 15-20 foizini tashkil etuvchi moddiy resurslarning 30 foizi “B” guruhga, 5 foizini tashkil etuvchi moddiy resurslarning 50 foizi “C” guruhga kiritiladi.

A guruh – eng qimmat va muhim xom ashyolar, lekin umumiy xarajatni katta qismini tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi xom ashyolar bo‘yicha qat’iy nazorat amalga oshirilishi va doimiy zaxira tashkil etilishi lozim.

B guruh – o‘rta qiymatga ega xom ashyolar. Ularning qiymati va miqdori yuqori emas. Bu guruhdagi xom ashyolar balansiga e’tibor qaratish kerak.

C guruh – eng arzon va kam ahamiyatli xom ashyolar. Ularning miqdori ko‘p bo‘lsada xarajatlarning kichik qismini tashkil etadi.

Iqtisodiy muhim ahamiyatga ega moddiy ishlab chiqarish zaxiralar holatini optimallashtirish uchun EOQ (Economic Order Quantity - iqtisodiy buyurtma miqdori), JIT (Just-In-Time – talab bo‘yicha), RIM (Reusable Inventory Model – qayta ishlanadigan zaxiralar) kabi modellardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu guruh ishlab chiqarish zaxiralarini rejalashtirishda transport-tayyorlov, saqlash xarajatlarini albatta hisobga olish zarur.

O‘rta ahamiyatli ishlab chiqarish zaxiralar ta’minotini JIT (Just-In-Time – talab bo‘yicha) model yordamida boshqarish mumkin. Bu guruh ishlab chiqarish zaxiralari katta miqdordagi zaxirani talab etmaydi.

Kam ahamiyatli ishlab chiqarish zaxiralarni shakllantirishda oddiy hisob ishlaridan, tahliliy jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

“Andijondonmahsulot” AJning xom-ashyo omboridan chiqim qilingan moddiy resurslar haqida ma’lumot

Xom ashyolar nomi	O’lchov birligi	2021 yil			2022 yil			2023 yil			O’rtacha qiymati
		o’rtacha bahosi	miqdori	qiymati	o’rtacha bahosi	miqdori	Qiymati	o’rtacha bahosi	miqdori	qiymati	
1	2	3	4	5=3*4	6	7	8=6*7	9	10	11=9*10	12=(5+8+11)/3
Bug’doy	Tonna	1340	61047	81802980	2980	54894	163584120	2260	15272	34514720	93300607
Don aralashma 70-85 %	Tonna	700	2530	1771000	1070	1981	2119670	1070	690	738300	1542990
Don aralashma 50-70 %	Tonna	950	1757	1669150	1350	1345	1815750	1350	317	427950	1304283
Kepak	Tonna	800	14366	11492800	1545	12836	19831620	1545	2691	4157595	11827338
Chig’anoq uni	Tona	3000	423	1269000	3000	323	969000	3000	200	600000	946000
Makkajo’ho ri doni	Tonna	3000	16727	50181000	3500	14653	51285500	4000	12420	49680000	50382167
Premiks	Kg	90000	20	1800000	98000	16	1568000	98000	7	686000	1351333
Qop	Dona	1800	1220	2196000	2200	1098	2415600	2500	306	765000	1792200
Ip	Kg	25000	24	600000	30000	20	600000	35000	6	210000	470000
Etiketka	Dona	35	1220	42700	35	1098	38430	35	306	10710	30613

Xom ashyolarni ABC guruhlarga ajratish uchun ularning yillar bo‘yicha o‘rtacha qiymati aniqlandi va har bir turdagi xom ashyolarning jamiga nisbatan ulushi topildi.

A guruhga eng muhim va qimmat, B guruhga o‘rtacha qiymat va iste‘mol hajmiga ega, C guruhga arzon va kam ahamiyatli xom ashyolar kiritiladi.

3-jadval

“Andijondonmahsulot” AJning tovar moddiy zaxiralarning A “Always”, B “Better”, C “Control” tahlili

Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari	Umumiy zaxiradagi ulushi %	Ishlab chiqarishdagi ahamiyati	Moliyalashtirish manbalari
Tovar don	57,26	iqtisodiy muhim	75-80%
Makka	30,92	o‘rta ahamiyatli	15-20%
Kepak Don aralashma 70-85% Don aralashma 50-70% Premiks Chig’anoq uni	11,82	past ahamiyatli	5%
Jami	100		100

Moddiy ishlab chiqarish zaxiralar tarkibida “iqtisodiy muhim” zaxira tovar don bo‘lib uni harid qilish sarflanishi kerak bo‘lgan mablag‘ moliyalashtirish manbalarini 75-80 foizini tashkil etishi, “o‘rta ahamiyatli” zaxira makka bo‘lib uni harid qilish uchun moliyalashtirish manbasining 15-20 foizidan foydalanish, “past ahamiyatli”

zaxiralar kepak, don aralashmasi, premiks, chig‘anoq uni bo‘lib moliyalashtirish manbalarining 5 foizidan foydalanish kerak deb topildi.

Xulosa sifatida ta‘minot jarayoni boshqaruv tahlilida ABC tahlilidan foydalanish ishlab chiqarish zaxiralarini ularning iqtisodiy ahamiyati va qiymatiga qarab guruhlash yordamida muhim bo‘lgan zaxiralarni boshqa zaxiralardan ajratib, ularga alohida e‘tibor qaratishga yordam beradi. Ishlab chiqarish zaxiralarini iqtisodiy muhim, o‘rta ahamiyatli, kam ahamiyatli toifalarga ajratish resurslar ustuvorligini ta‘minlash, ta‘minot byudjetini shakllantirish, zaxiralar holatini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlash borasida strategik rejalar ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022-yil hosilidan bug‘doyni harid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2022-yil 30-may 284-son.

2. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013. -476 b.

3. Abdullaev A, Abduvasikov A,A, Yusupova M.B, Kamolov X.X, Xojiboev M.Sh, Raximova U, Xamidullina Z.Ch. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2019. -252 b.

4. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. -312 b.

5. Vahobov A.V, Ishonqulov N.F, Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. -600 b.

6. Vaxrushina M.A. Upravlencheskiy analiz: Uchebnoe posobie. M.:Omega-L, 2005. -432 s.

7. Nikiforova N.A., Tafinseva V.N. Upravlencheskiy analiz : uchebnik dlya bakalavriata i magistraturi. - 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Yurayt, 2015. - 468 s.

8. Pardayev M.Q, Xasanov B.A, Isroilov J.I, Po‘latov M.E, Eshboyev O‘.T, Holiqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: Cho‘lpon, 2012. -400 b.

9. Pardayev M.Q, Hasanov B.A, Isroilov J.I, Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: TDIU va SamISI, 2011.-239 b.

10. Tashkenbayeva Z. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. “Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi” ilmiy jurnali №1, 2021.

11. Jumaniyazov I.B. Boshqaruv hisobi va tahlilini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy electron jurnal. II son-iyun, 2023.

12. Chinberdiyeva L.R. Ta‘minot jarayonlari boshqaruv tahlilining tashkiliy uslubiy jihatlari. “Qishloq xo‘jaligida resurs tejovchi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning ilmiy amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman maqolalar to‘plami, 2023. 338-bet.